Jahonda iqtisodiyotni modernizasiya qilish va innovasion rivojlantirish yirik hajmda investisiyalarni talab qilishi, mazkur jarayonda qimmatli qog‘ozlar bozori rivojlanishi jamg‘armalarni investisiyalarga transformasiya qiladi va iqtisodiyot tarmoqlariga investisiya kiritishga imkoniyat yaratadi. Qimmatli qog‘ozlarni birlamchi va qayta sotish bo‘yicha barcha operasiyalar qimmatli qog‘ozlar savdo tizimlarida fond birjasi, elektron savdo va uyushmagan savdo tizimlari orqali amalga oshiriladi. “Jahondagi eng yirik 10 ta birja jahon fond bozori kapitallashuvining qariyb 77 foizini yoki 65,6 trillion AQSh dollarni tashkil qiladi. Ular bo‘yicha birja savdolarining kunlik hajmi 5,0 trillion AQSh dollardan oshadi, bu jahon aylanmasining 40,0 foizini tashkil etadi, 22,0 foizi faqat NYSE (New York Stock Exchange) va NASDAQ (National Association of Securities and Dealers Automated Quotations) birjalariga to‘g‘ri keladi”[1].

Dunyo amaliyotida moliya bozorini boshqarish jarayonlarida moliyalashtirish darajasi keskin tushib ketganligi, ularning oldini olish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va korporativ boshqaruv jarayonida xalqaro talablarga mos ravishda buxgalteriya hisobi va auditini tashkil etishning turli metodologik yondashuvlar asosida yuritilishi kuzatilmoqda.

Jahon mamlakatlarida iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida bevosita qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirish muammolari vujudga kelishi, moliyaviy instrumentlarni tan olish, uning hisobini tashkil etish va auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazishda, moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarni buzib

1 www.nyse.com, www.nasdaq.com. ТОП-10 мировых бирж. На основе информации международный биржа по статистический база данных NYSE и NASDAQ.

ko‘rsatishlar, firibgarliklarni oldini olishda muhim ilmiy tadqiqot mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, jahonning yirik davlatlarida qimmatli qog‘ozlarning kuzatuvsiz chiqarilishi natijasida ko‘plab nufuzli xalqaro tahlil markazlari va ekspertlarining chalg‘itishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu sharoitda qimmatli qog‘ozlar bozori qatnashchilarining faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, ular tomonidan chiqarilayotgan moliyaviy instrumentlarning ta’minlanganlik darajasini oshirish, moliyaviy instrumentlar hisobini yanada isloh qilish, uni hozirgi bozor iqtisodiyotiga moslashtirish masalalari, xalqaro va milliy tadqiqot markazlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida keyingi yillarda moliyaviy instrumentlardan keng foydalanish maqsadida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar qimmatli qog‘ozlarini dunyodagi mashhur fond birjalari talablari asosida ularga joylashtirish natijasida biznes rivojlanishi va uni samarali boshqarish muammosini hal etish, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha alohida e’tibor qaratish belgilangan. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishni jadallashtirish orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta’minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, hisob va audit sohalari mutaxassislarini xalqaro standartlar bo‘yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida”[2] hukumatimiz rahbari qarorlari bilan alohida belgilab qo‘yilgan. Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida “moliya bozoriga xorijiy kapital oqimlarini asosan o‘rta va uzoq muddatga jalb qilish; davlat qimmatli qog‘ozlarini norezidentlar tomonidan xarid qilishga ruxsat berish; korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorida likvidlikni oshirish”[3] kabi vazifalar belgilanganligi moliyaviy instrumentlar hisobi va auditining nazariy hamda uslubiy jihatlatlarini takomillashtirish muhimligini ko‘rsatib beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 25 dekabrdagi 598-son “Investisiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2015 yil 3 iyundagi 387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2014 yil 6 maydagi 370-son “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2018 yil 1 avgustdagi PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investisiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi PF-4720-son «Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fond bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2012 yil 19 martdagi PQ-1727-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2007 yil 4 apreldagi «Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida»gi PQ-615-son qarori hamda moliyaviy instrumentlar hisobi va auditi faoliyatiga tegishli bo‘lgan boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekistonda moliyaviy instrumentlar buxgalteriya hisobi va auditi masalasi dolzarb mavzu bo‘lib, iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida muhim ahamiyatga egadir. Shu nuqtai nazardan ushbu masala bo‘yicha ko‘plab ilmiy ishlar bajarilgan bo‘lib, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning faoliyatida moliyaviy insrtumentlarni hisobga olish va uning auditini tashkil etish masalalari va uning ayrim masalalari bo‘yicha ilmiy ishlar bajarilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Shu jumladan B.I. Isroilov tomonidan (1999)[4] aksiyadorlik jamiyatlarida hisob siyosatining konseptual asoslari, ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga salbiy ta’sir qiladigan debitorlik qarzlari va ularni kamaytirish, aksiyalarning fond birjalari va depozitariylar hisobining xususiyatlari, ularning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati tahlili, omilli tahlil va uning natijasida mavjud ichki imkoniyatlarni aniqlash yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shu jumladan muallifning oldingi ishlarida (2006)[5] aksiyadorlik jamiyatlaridagi mol etkazib beruvchilar oldidagi majburiyatlarni baholash, ularni schyotlar rejasida aks ettirish, majburiyatlar ustidan nazoratni amalga oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, obligasiyalar hisobi, majburiyatlarni baholash va ularni tahlili kabi masalalar yoritilgan.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сон “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги карори. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 25.02.2020 й., 07/20/4611/0209-сон

3 Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон

4 Исроилов Б.И. Акциядорлик жамиятларида бухгалтерия ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш. (Савдо акциядорлик жамиятлари мисолида). И.ф.н.илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. -Т.: БМА, 1999. -23б.

5 Махмудов С.Қ. Акциядорлик жамиятларида мажбуриятлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш (Ип-йигирув корхоналари мисолида). И.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. -Т.: БМА, 2006. -22б.

Investisiyaning ikkinchi turi bo‘yicha turli fikrlar mavjud bo‘lib, ularda xo‘jalik sub’ektlarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investisiya faoliyati bo‘yicha turlicha talqin etilgan. Masalan: Piter Rouz [3], u banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investisiya faoliyati vositalarini o‘rganib, ularni quyidagi ikki sinfga bo‘lgan: 1) pul bozori instrumentlari; 2) kapital bozori instrumentlari. U investisiya faoliyatini asosiy yo‘nalishiga veksel va obligasiyalar jalb qilish taklifini bergan.

G.N. Beloglazova [4] esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar va portfelli investisiyalarni o‘rganib chiqib, qimmatli qog‘ozlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalarni jalb qilish va ularni investisiya portfelini tashkil etishni tavsiya etgan. O.I. Lavrushin tomonidan [5] tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investisiya faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha investisiya banklari tashkil etishda ikki yo‘lni qo‘llashni taklif etgan: a) to‘g‘ridan-to‘g‘ri qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish va sotish; b) uzoq muddatli kreditlash orqali investisiya faoliyatini tashkil etish.

E.I. Nosirov [6] tomonidan xo‘jalik sub’ektlarining investisiya faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar tadqiq etilib, ularning eng muhimlari investorlar huquq va manfaatlari buzilishi, tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi rolini oshirish tamoyillari etarlicha shakllanmaganligi, deb ta’kidlangan. F.A. Yuldashev tomonidan [7] tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozori operasiyalarini tashkil etishni takomillashtirish yo‘nalishlari o‘rganib chiqilgan.

Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra, olimlar ushbu muammoni o‘rganish bo‘yicha turli fikrlarni bildirishgan, lekin aksariyat olimlarning fikri iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida moliyaviy instrumentlarni hisobga olish va auditini tashkil qilishga mos kelmasligi ushbu mavzu bo‘yicha izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy-matematik qiyoslash va guruhlash kabi iqtisodiy tahlil va statistik usullardan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yurtimizda qimmatli qog‘ozlar bozori muhim va dolzarbligi sababli ushbu masalaga keyingi yillarda alohida e’tibor berilmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo‘sh pul mablag‘larini jamlash va uni investisiya jarayonlariga yo‘naltirishning muhim vositasidir. Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligasiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Ushbu masalani rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev tomonidan shunday deyilgan: “Lekin qimmatli qog‘ozlar chiqarib, ularni fond bozorida sotish mexanizmidan samarali foydalanilmayapti. Fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so‘m bo‘lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham etmaydi. Bu ko‘rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda joriy yilda chiqarilgan davlat obligasiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni yuztagayam bormaydi. Shu bois 2020-2025 yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomaladagi jami qimmatli qog‘ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025 yil oxirigacha kamida 10-15 foizga etkazish mo‘ljallangan”[6].

Ushbu sohani tahlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda bu soha, ya’ni qimmatli qog‘ozlar bozori 100 ga yaqin normativ hujjatlar bilan tartibga solinib, ko‘plab cheklovlar o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Yurtimizda qimmatli qog‘ozlar bozori muhim va dolzarbligi sababli ushbu masalaga keyingi yillarda alohida e’tibor berilmoqda. Qimmatli qog‘ozlar bozori iqtisodiyotdagi bo‘sh pul mablag‘larini jamlash va uni muhim investisiya jarayonlariga yo‘naltirish vositasidir.

Bu boradagi islohotlarning dastlabki bosqichi sifatida joriy yil boshida Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tuzildi. Davlat obligasiyalari fond bozoriga qayta chiqarildi. Ushbu qilingan ishlar fond bozorini rivojlantirish uchun etarli emas deb o‘ylaymiz.

Mamlakatimizda joriy yilda chiqarilgan davlat obligasiyalari valyuta birjasi orqali faqatgina tijorat banklariga sotilgan. Fond bozori professional ishtirokchilari soni yuztagayam bormaydi. Emitentlar bilan soniga bog‘liqligini va uning rivojlanishini tahlil qilish lozim.

1-jadval. O‘zbekiston Respublikasida fond bozori hajmining tahlili[7].

№	Yillar	Bitimlar soni	Bitimlar hajmi,	Yillar	Bitimlar soni
1.	2018	13 750	687,30	14,3	117
2.	2019	32 816	438,82	15,2	112
3.	2020	36 062	578,15	11,1	103

6 Махмудов С.Қ. Акциядорлик жамиятларида мажбуриятлар ҳисоби ва таҳлилини такомиллаштириш (Ип-йигирув корхоналари мисолида). И.ф.н. илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. –Т.: БМА, 2006. -22б.

7 Мирзиёев Ш.М. Фонд бозорини ривожлантириш масалаларига бағишланган йиғилишдаги нутқи. 07.10.2019. //norma.uz.

4.	2021	71 489	1 260,51	10,0	108
5.	2022	80 723	4 816,21	12,3	114
Jami 5 yillik	X	234 840	1 704,27	X	X

Ushbu 1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi fond bozori keyingi yillarda juda tez rivojlanmoqda. Ayniqsa fond bozori 2021 va 2022-yillarda juda tez rivojlanib, shu jumladan 2018-yili 687,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lib, 2018-yilda esa nisbatan 2019-yilda kamaygan, 2020-yilda esa 139,33 mlrd o'sgan. Bundan tashqari 2021-yili 2022-yilga nisbatan esa 3,82 baravarga yoki 3555,7 mlrd so'mga oshganligini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. O'zbekistonda fond bozori hajmining tahlil grafigi.

Emitentlar soni o'zgargani bilan fond bozorining hajmi unga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu qimmatli qog'ozlar bozorida asosiy masala daromadlilik darajasini hisoblash va uning uchun zarur axborot bilan ta'minlash masalasi hisoblanadi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarining faoliyati va rivojlanishi dinamikasining tahlili grafigi.

Demak, ushbu sohani tahlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda qimmatli qog‘ozlar bozori 100 ga yaqin normativ hujjatlar bilan tartibga solinib, ko‘plab cheklovlar o‘rnatilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Oxirgi yillarda O‘zbekiston fond bozori barqaror o‘sish ko‘rsatkichlarini namoyon qilib, qimmatli qog‘ozlarga mablag‘larni samarali investisiyalashning katta imkoniyatlarini ochib, mamlakat moliya tizimining tobora ahamiyatli qismiga aylanib bormoqda.

Respublikada qimmatli qog‘ozlar bilan birja operasiyalari korxonalar innovasion rivojlanishi uchun mablag‘ jamlashning tobora keng tarqalayotgan shakliga aylanib bormoqda. Bundan tashqari aksiyadorlik jamiyati soni va ustav kapitali o‘zgarishi dinamikasini taqqoslash mumkin.

Ushbu 2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, hozirda aksiyadorlik jamiyatlariga korporativ boshqaruvni joriy etish va unga bo‘lgan talab o‘zgarishi natijasida ularning soni kamayib bormoqda. Shu jumladan aksiyadorlik jamiyatlari 2022 yilda umumiy bozor kapitallashuvi 94.38 trln. so‘mni tashkil etgan. Lekin ularning ustav fondi borgan sari oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan: 2021 yilda 56.20 trln. so‘m tashkil etgan bo‘lsada, ustav kapitali esa 2020 yilga 54.79 trln. so‘mni tashkil etganligi, ya’ni ularning ko‘payishini ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval. Viloyatlarning 2023-yil holatiga fond bozori hajmi tahlili.

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon viloyati	4	8 601	41 814 582	16 769 840 129,57
Buxoro viloyati	9	648	9 689 323	16 051 218 885,17
Toshkent shahri	47	34 984	36 066 662 551	2 658 061 671 456,47
Jizzax viloyati	1	301	34 658	126 710 383,05
Qashqadaryo viloyati	8	169	512 833	12 513 676 356,32
Navoiy viloyati	3	6 822	4 359 403	14 602 655 278,41
Namangan viloyati	4	1 245	135 944	4 037 097 570,22
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5	83	3 194 490	39 293 691 648,92
Samarqand viloyati	2	305	1 357 135	14 167 059 932,03
Sirdayro viloyati	2	4	150 663	326 102 481,09
Toshkent viloyati	16	18 479	11 010 930	1 962 863 604 773,77
Farg'ona viloyati	10	9 062	10 429 576	60 999 925 563,36
Xorazm viloyati	3	20	5 408 094	16 394 164 342,02
Jami	114	80 723	36 154 760 182	4 816 207 418 800,40

«Toshkent» RFB rasmiy birja listingiga 2023-yilda 21-aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari kiritilgan bo‘lib, ular jumlasiga tijorat banklari, sug‘urta kompaniyalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish, agrosanoat kompleksi, energetika, metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa sanoat tarmoqlariga mansub korxonalar kiradi. 2023-yil 31-may holatiga 106 ta emitentlarning 129,93 mlrd. so‘mlik aksiya emitentlarning umumiy bozor kapitallashuviga erishilgan.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashtirish, ayniqsa qimmatli qog‘ozlar hisobining tashkiliy masalalarini hal qilish va halqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida auditorlik tekshiruvlarini tashkil etish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi turli xalqaro tashkilotlar bilan faol aloqalar o‘rnatishi, jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo‘shilishi jarayonida, iqtisodiy ko‘rsatkichlar xorijiy mezonlarga taqqoslanishi, auditning uslubiy tamoyillarini jahon amaliyotida qabul qilingan standartlar talablariga javob berishini ta’minlashni talab qiladi.

Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga investisiyalar muhim hissa qo‘shib, uni jalb etishning turli usullaridan foydalanish mumkin. Kapital qo‘yilmalar qo‘yish ob’ektiga faqat asosiy vositalar kirsa, investisiyaga aylanma mablag‘lar, qimmatli qog‘ozlar kiradi. Investisiya ikki turga bo‘linib, birinchisi mablag‘larni to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalash, ya’ni uni korxona ishiga kapital sifatida qo‘yish bo‘lsa, ikkinchisi, mablag‘ni korxonalar aksiyalarini sotib olishga sarflash bo‘lib, portfelli investisiyalar deyiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Shunday yo‘llardan biri qimmatli qog‘ozlar chiqarish va uni sotish orqali pul mablag‘larini iqtisodiyotga jalb etish kerak. Aktivlarni boshkarishda asosiy vazifa risklarni boshqarish va nazorat qilish usullari yordamida qimmatli qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining startegik maqsadlari bajarilishini taminlashdan iboratdir. Bu usul esa tashqi muhit hamda aktivlar tuzilishiga qarab tanlanadi. Bu vazifani hal etish uchun qog‘ozlar bozori ishtirokchilarining mikro va makro sohasidagi o‘zgarishlarga, shuningdek mamlakat va jahon moliya tizimidagi makroiqtisodiy vaziyat o‘zgarishiga tezkor moslasha bilish, ayrim hollarda noandozaviy qarorlar qabul qilish talab etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy instrumentlar hisobi va auditini takomillashtirish uchun yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim:

1. Bugungi kunda qimmatli qog‘ozlar hisobi va auditning huquqiy asosini takomillashtirish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Bunga, xalqaro bozorlarda faoliyat yuritayotgan kompaniya, korxona va banklar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa muomalalarining vujudga kelishi va qimmatli qog‘ozlar bozorining yanada rivojlanishi sabab bo‘lmoqda. O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bilan bog‘liq faoliyatini hisobga olish va audit tekshiruvi jarayonida auditning halqaro standartlari talablariga muvofiq ravishda o‘tkazilishi iqtisodiyotini rivojlantirish uchun qaratilgan, qolaversa auditorlik faoliyati milliy standartlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish masalalari xali to‘liq o‘rganilib chiqilmagan deb o‘ylaymiz. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog‘ozlar hisobi va auditining xalqaro standartlarini rivojlantirish roli salmoqli hamda O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar hisobi va auditini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish zarur deb o‘ylaymiz. Jahon iqtisodiy munosabatlari kengayishi, halqaro maydonda o‘zaro iqtisodiy aloqalar kuchayishi, bir necha davlatlarda faoliyat yurituvchi multimilliy kompaniyalar paydo bo‘lishi iqtisodiy va moliyaviy axborotlarni bir tizimga solish, hamda moliyaviy axborotlardan foydalanuvchilar uchun qulay holda etkazib berish zaruratini paydo qildi.

2. O‘zbekiston Respublikasida amaldagi qonunchilikka ko‘ra, xo‘jalik sub’ektlari tomonidan quyidagi qimmatli qog‘ozlarni muomalaga chiqarish ruxsat etilgan.

Buxgalteriya hisobining 21-sonli “Buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi” nomli milliy standartiga ko‘ra, qimmatli qog‘ozlar quyidagi schyotlarda hisobga olish mo‘ljallangan:

0610- “Qimmatli qog‘ozlar”;
0620- “Sho‘‘ba xo‘jalik jamiyatlariga investisiyalar”;
0630- “Qarma xo‘jalik jamiyatlariga investisiyalar”;
0640- “Xorijiy kapital qatnashgan korxonalarga investisiyalar”;
0690- “Boshqa uzoq muddatli investisiyalar”.[8]

Lekin O‘zbekiston Respublikasi “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra,[9] depozit sertifikati, korporativ obligasiyalar, emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar kabi turlari to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tilgan. Demak, ushbu qimmatli qog‘ozlarni ham hisobga olish zarurati paydo bo‘ladi. Shu sababli fikrimizcha, ularni alohida hisobga olish uchun 0610 schyotda qo‘shimcha quyidagi schyotlarni ochish lozim deb o‘ylaymiz.

0611- “Depozit sertifikati”;
0612- “Korporativ obligasiyalar”;
0613- “Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar” nomli schyotlarda ushbu qimmatli qog‘ozlarni alohida yuritish va ularning turlari va emitentlarning nomlari bo‘yicha analitik schyotlar ochib yuritish zarur.



1–rasm. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra amal qilishi xuquqi mavjud qimmatli qog‘ozlar [7].

Ushbu taklif qilinayotgan schyotlarni quyidagicha boshqa hisobvaraqlar bilan bog‘liqligini ko‘rish mumkin.

3-jadval. Uzoq muddatli qimmatli qog‘ozlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning bog‘lanishi.

T/r	Xo‘jalik operasiyasining mazmuni	Bog‘lanuvchi hisobvaraqlar		Yozuvlarni tasdiqlovchi hujjatlar
		debet	kredit	
1	Depozit sertifikatlarni xarid qilish	0611	5110	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura
2	Korporativ obligasiyalarni xarid qilish	0612	5110	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura
3	Emissiyaviy qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish	0613	5110	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura
4	Sotuvchi korxonaga asosiy vositalarni berish yo‘li bilan qimmatli qog‘ozlar xarid qilish	0611 0612 0613 9210	9210 0110-0190	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura, asosiy vositalarni tugatish dalolatnomasi
5	Sotuvchi korxonaga tayyor mahsulotni berish yo‘li bilan qimmatli qog‘ozlar xarid qilish	0611 0612 0613 9110	9010 2810	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura, yukxat
6	Sotuvchi korxonaga tovarlarni berish yo‘li bilan qimmatli qog‘ozlar xarid qilish	0611 0612 0613 9120	9020 2910	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura, yukxat
7	Qimmatli qog‘ozlarning xarid va nominal qiymati o‘rtasidagi farqni (nominal qiymati xarid qiymatidan yuqori) aks ettirish	0611 0612 0613	9560	Guvohnoma, qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura
8	Yil oxirida qimmatli qog‘ozlarning xarid va nominal qiymati o‘rtasidagi farqni (xarid qiymatidan yuqori) aks ettirish	9610	0611 0612 0613	Guvohnoma, qimmatli qog‘ozlarga obuna, hisobvaraq-faktura
9	Boshqa korxonalarning qimmatli qog‘ozlarini xarid qilish	0611 0612 0613	Pul mablag‘ larini hisobga oluvchi hisob varaq lar	Qimmatli qog‘ozlarga obuna, qimmatli qog‘ozlarga egalik qilish to‘g‘risidagi guvohnoma
10	Brokerlarga investisiyalar bo‘yicha komission haqni hisoblash	0611 0612 0613	6990	Vositachi korxona bilan shartnoma, hisobvaraq-faktura, ko‘rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi

Qimmatli qog‘ozlar auditini amalga oshirishda, avvalo, ichki audit tomonidan batafsil auditorlik nazorati amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtga kelib ko‘p hollarda ichki auditorlarning funksiyalari, hatto o‘z kompaniyasi tarkibiy bo‘linmalari buxgalteriya hisobotlarini tekshirish doirasidan ham chetga chiqadi. Ichki auditorlar korxonaning iqtisodiy siyosati va boshqaruv masalalarida ko‘proq ishtirok etmoqdalar. Ichki auditorlar yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib, o‘z maqomiga ko‘ra katta vakolatlarga ega. Ularning majburiyatlari doirasiga ko‘proq quyidagilar kiradi:

- **operasion audit** - boshqaruv masalalari bo‘yicha korxonaning turli tarkibiy bo‘linmalariga maslahat berish, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar sotib olish va uning ishonchliligini aniqlashda ichki audit xulosasiga tayanish, (masalan, marketing ishlarini baholash, korxona qimmatli qog‘ozlarini ishonchliligi va uning to‘lovga qobiliyatliligiga e’tibor berish, tarkibiy tuzilmasini baholash va sh. k.);
- **muvofiqlik auditi** - ushbu korxona bo‘linmalari faoliyati, uning ma’muriyati va zarur bo‘lganda yuqori organlar tomonidan belgilangan yoki qonun xujjatlarida ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiqligini tekshirishdan iborat. Masalan, tuzilgan shartnomalarni yuridik talablar nuqtai nazaridan tekshirish va baholash, qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha risklarni kamaytirish va h.k.

Shunday qilib, qimmatli qog‘ozlar hisobini va auditi to‘g‘ri tashkil etilishi, unga tegshli dividendlarni o‘z vaqtida olish imkonini beradi va ular bo‘yicha tegishli hisobni to‘g‘ri tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”гиПФ-60-сон фармони. URL: https://lex.uz/docs/5841063
2. https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/merchandise-trade-2

3. Питер Роуз. Банковский менеджмент. -М.: ИНФРА-М, 1995. -294с.
4. Белоглазова Г.Н., Кроливецкая Л.П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка. -М.: Высшее образование, 2008. -422с.
5. Лаврушин О.И. Основы банковского менеджмента. -М.: Финансы и статистика, 1998. -612с.
6. Насиров Э. Қимматли қоғозлар бозорида тижорат банклари ролини ошириш масалалари.://и.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т., 2006. -24 б.
7. Юлдашев Ф.М. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операцияларини фаоллаштириш масаласи. и.ф.н.илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т., 2006. - 23 б.
8. Алимов И.И. Тижорат банкларининг қимматли қоғозлар билан операциялари. -Т., 2006. -216б.
9. Национальный стандарт бухгалтерского учета Республики Узбекистан НСБУ №21. -Т.: «NORMA», 2022. -42с.
10. Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й. 29-30 сон, 278-модда.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokr ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2024. № 12

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.